

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMJANOVA SHAXNOZA SAIDANVAROVNA

**UGLEVODOROD XOMASHYOSIGA ISSIQLIK ISHLOVI BERIB,
BIRLAMCHI XAYDASHGA TAYYORLASH JARAYONLARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

02.00.16 - Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Raximjanova Shaxnoza Saidanvarovna

Uglevodorod xomashyosiga issiqlik ishlovi
berib birlamchi xaydashga tayyorlash
jarayonlarini optimallashtirish 4

Рахимжанова Шахноза Саиданваровна

Оптимизация процессов тепловой подготовки
углеводородного сырья к первичной перегонке 21

Rakhimjanova Shakhnoza Saidanvarovna

Optimisation of processes for the thermal preparation
of hydrocarbon raw materials for primary distillation 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMJANOVA SHAXNOZA SAIDANVAROVNA

**UGLEVODOROD XOMASHYOSIGA ISSIQLIK ISHLOVI BERIB,
BIRLAMCHI XAYDASHGA TAYYORLASH JARAYONLARINI
OPTIMALLASHTIRISH**

02.00.16 - Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va apparatlari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fabrika doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqaruvi Oliy atamatsiyasi komissiyasida KIMM.L.Phd/T1734 raqam bilan ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutiida bajarilgan.
Dissertatsiya o'qituvchisi uchun (to'liq, narx va uqituvchi (o'qituvchi) ilmiy kengash web-sahifasi www.iti.tu.uz va o'qituvchisi uchun to'liq ta'lim ta'limining www.uznet.uz joylashganligi.

Ilmiy rahbar:	Xudayberdiyev Abduhamid Abduhamidovich Texnika fanlari doktori, professor
Koordinatorlar:	Xamdamov Anvar Maxramovich Texnika fanlari doktori, dotsent, NaardTU; Narziyev Mirzo Saidovich Texnika fanlari doktori, dotsent, BDU.
Yirikchi institut:	Ukarmov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya mavzusi Toshkent kimyo-texnologiya instituti boshqaruvi ilmiy darajalar bo'yicha D66 03/30.12.2019.T.0401 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 09 oyida o'qituvchi ilmiy kengash majlisida ko'rib chiqildi (Mazot 100011, Toshkent sh. Shaxmatdilar tumani, A. Navoiy ko'chasi, 32. Tel: (99871) 2447920, faks (99871) 2447917, e-mail: dkt@info.iti.tu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Akademik-usuliy markazida tanqidlash majlisi (M... raqam bilan ko'rib chiqilgan) Mazot 100011, Toshkent shahri, Shaxmatdilar tumani, Akhbar Navoiy ko'chasi, 32. Tel: (99871) 2447921.

Dissertatsiya muhuratini 2025 yil 09 oyida ko'rib chiqildi.
2025 yil 09 oyida ko'rib chiqildi (M... raqamli ro'yxat bayonnomasi).



Xudayberdiyev A.M.
Ilmiy darajalar bo'yicha ilmiy kengash a'zosi, k.f.d., akademik
Kudrov X.L.
Ilmiy darajalar bo'yicha ilmiy kengash a'zosi, k.f.d., professor
Xudayberdiyev G.R.
Ilmiy darajalar bo'yicha ilmiy kengash a'zosi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda motor yoqilg'isi, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo neft va tabiiy gaz hisoblanib, motor yoqilg'isiga bo'lgan talabning uzluksiz o'sib borilishi bilan neft va gaz sanoati korxonalarini texnik va texnologik qayta jihozlash muhim ahamiyatga ega. Neftni xaydash jarayoni texnologik rejimlarini maqbullashtirish, uskunalar texnologik sxemalarini ratsional komponovkalash, tarkibiy texnologik qurilmalar konstruktsiyasini takomillashtirish orqali mahalliy uglevodorod xomashyosidan oqilona foydalanish, uni chuqur qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini o'zlashtirish va yaxshilangan ekologik ko'rsatkichlari bilan xalqaro standartlar talablariga mos keluvchi neft mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqni yanada rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Jahonda yoqilg'i-energetika kompleksining energiya samaradorligini oshirish va neftni haydashning energiyatejamkor texnologiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada uglerod xomashyosini qayta ishlashning energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarini tadqiq etish, neft mahsulotlari turlarini kengaytirish va hajmini oshirish, ratsional sondagi qurilmalar bilan xomashyoni isitishni texnologik tizimlash, технологик oqimlar issiqligidan foydalanishni samarali tashkil etish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va energetik sarfni qisqartirish imkonini beruvchi kam bosqichli texnologiyalarini maqbullashtirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda neftni qayta ishlash tarmog'ida ishlab chiqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va sifatini oshirish hamda turlarini kengaytirish, kam bosqichli texnologiyalarini maqbullashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy etish, sanoat korxonalarini va ilmiy muassasalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash bo'yicha sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, neft xomashyosini atmosfera bosimida xaydash uskunalari takomillashtirish, maqbul issiqlik tashuvchilarni tanlash bilan texnologik rejimlarini optimallashtirish, ularning energiya samaradorligini oshirish va neft mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020 yil 04 apreldagi PQ-4664-son «Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari va qarori mazkur faoliyatga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni

tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Uglarod xomashyosini qayta ishlash energiyatejamkor texnologiyalarining asoslarini yaratish, neft mahsulotlari turlarini kengaytirish va hajmini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish imkonini beruvchi kam bosqichli texnologiyalarini maqbullashtirish bo'yicha Mendeleev D.I., Gubkin I.M., Smith J.F.D., Bagaturov S.A., Voinov B.P., Kasatkin A.G., Aleksandrov A.I., Planovskiy A.N., Kafarov V.V., Skoblo A.I., Glagoleva O.F., Kapustin V.M., Manovyan A.K., Yusupbekov N.P., Salimov Z., Artikov A., Turobjonov S.M., Sayidaxmedov I.M., Sayidaxmedov Sh.M., Yunusov M.P., Abduraximov S.A., G'ulomov Sh.M., Ikromov A., Xudayberdiev A.A., Rahmonov T.Z., Abduraxmonov O.R., Xurmamatov A.M. Ismailov O.Yu. va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular tomonidan kimyoviy texnologiya, neft-gaz kimyosi, neftni qayta ishlash texnologiyalari takomillashtirilgan, texnologik jihozlarni hisoblash va loyihalash asoslari yaratilgan, quvurli qurilmalarda issiqlik almashinish jarayonlarini amalga oshirishning energiyatejamkor texnologiyalari va suyuq uglevodorod oqimlarini turlicha gidrodinamik rejimlarda uzatishda energiya sarfini kamaytirish texnologiyalari tavsiya etilgan.

Shu bilan birga, neft xomashyosini atmosferada xaydash uskunalarni takomillashtirish, neftni muqobil issiqlik tashuvchilari bilan xaydash texnologiyasini ishlab chiqish, xom ashyoga issiqlik ishlovi berib haydashga tayyorlashning energiyatejamkor texnologik tizimlarini sintez qilish hamda neftni haydash uskunalarining texnologik rejimlarini, ularning energetik samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan neft mahsulotlari tannarxini pasaytirish maqsadida, maqbullashtirish bo'yicha tadqiqotlar bugungi kunga qadar etarli darajada bajarilmagan.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi va FA-A13-140 «Gidrodinamik rejimlarni optimallashtirish orqali birlamchi xaydash uchun uglevodorod xomashyosini isitish jarayonlarining energiya tejoychi texnologiyasini ishlab chiqish» (2014-2017 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qobiq trubali apparatlarda uglevodorod xomashyosiga distillat fraksiyalari issiqlik oqimlari bilan ishlov berib, birlamchi xaydash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

neft, gaz kondensati va ularning aralashmalarining asosiy fizik va issiqlik fizikaviy xossa ko'rsatkichlarini aniqlash va tajriba ma'lumotlariga matematik ishlov berish;

qobiq trubali issiqlik almashinish qurilmasining ishchi zonalarida distillat fraksiyalarining issiqligi bilan xom ashyoni isitish jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlarni suyuqlik harakati va issiqlik energiyasini taqsimlanishi kanallar bo'ylab bo'yicha ko'p bosqichli tahlil qilish va apparatdagi jarayonning ierarxik tuzilishini aniqlash;

issiqlik almashinish qurilmasining ishchi zonalarida aniqlangan elementar jarayonlar salmog'ini qiyosiy baholash asosida neft xomashyosini isitish jarayonining matematik modelini qurish;

neft xomashyosini suyuq va bug' fazalaridagi distillat fraksiyalarining issiq oqimlari bilan isitishda qobiq trubali qurilmalarda issiqlik berish va issiqlik uzatish koeffitsientlarini hisoblashning aniqlashtirilgan metodikasini ishlab chiqish;

model yordamida jarayon statikasini o'rganish, apparat quvurlari uzunligi bo'ylab xomashyoning xarorat taqsimoti egri chiziqlarini qurish va tahlil qilish;

qobiq trubali issiqlik almashinish apparatlarda distillat fraksiyalarining issiq oqimlari bilan neft xomashyosini isitish jarayonini maqbullashtirish;

NQIZ sharoitida xomashyoga issiqlik ishlovi berib haydashga tayyorlash texnologiyasini aniqlangan maqbul konstruktiv-texnologik parametrlarini amalga oshirishning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida neft, gaz kondensati va ularning aralashmalari, shuningdek ularni birlamchi xaydash jarayonida hosil bo'ladigan distillat fraksiyalari olingan.

Tadqiqotning predmetini issiqlik almashinish apparatlarida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar, neft-gaz kondensati aralashmasini distillat fraksiyalarining bug' va suyuq fazalaridagi issiq oqimlari bilan isitish, birlamchi haydashga tayyorlash jarayonlari va qurilmalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani bajarishda tajribalarni rejalashtirish, eksperimental natijalarni statistik qayta ishlash, neft va neft mahsulotlarining fizik va issiqlik-fizik xossa ko'rsatkichlarini aniqlash, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, o'xshashlik nazariyasi va modellashtirish hamda tajriba natijalarini kompyuterda qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neft xomashyosi va distillat fraksiyalari xossalarning faza holati va qizdirish haroratiga bog'liq o'zgarishi isbotlanib, qobiq trubali issiqlik almashinish apparatlarda issiqlik uzatish koeffitsienti aniqlangan;

atmosfera xaydash reglament sharoitida xom ashyoni isitish uchun, birinchi bosqich issiqlik almashinish apparatlari isitish sirtlarining optimal qiymatlari ($F_{opt} = 856,7 \text{ m}^2$, $G_0 = 105508 \text{ kg/soat}$, $t = 20 \div 150 \text{ }^\circ\text{C}$ va $F_{um} = 1781,7 \text{ m}^2$) aniqlanib, 925 m^2 isitish sirtining zaxirasida issiqlik yuklamasini $50 \div 62,5 \%$ ga oshirishi isbotlangan;

unumdorligi $105508,3 \text{ kg/soat}$ bo'lgan issiqlik almashinish apparatlarning reglamentlangan harorat bo'yicha ishlashi uchun isitiladigan xom ashyoning minimal qiymatini ta'minlaydigan jarayonning maqbul texnologik parametrlari asoslangan;

neft xomashyosini isituvchi issiqlik almashinish apparatlarning samaradorligini baholashning isitish yuzasi F birligiga to'g'ri keluvchi issiqlik Q va energiya N harajatlari nisbatini tavsiflovchi $\theta = Q/(NF)$ mezon asoslangan;

qobiq quvirli apparatlarda uglevodorod xomashyosiga distillat fraksiyalari issiqlik oqimlari bilan ishlov berish orqali takomillashtirilgan birlamchi xaydash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft xomashyosi va distillat fraksiyalarining fizikaviy va termofizik xossalari trubali issiqlik almashinish apparatlarda oqim harakatining gidrodinamik rejimlariga ta'siri aniqlangan;

neftni qayta ishlash uskunasi tartibga solinadigan ish sharoitida xomashyoni oldindan qizdirishning 1-bosqichidagi qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmalarning maqbul parametrlari aniqlangan;

xom ashyoni xaydash uchun termik tayyorlashning 1-bosqichidagi quvurli isitgichlarda distillat fraksiyalarining issiq oqimlari bilan neft-gaz-kondensati aralashmasini isitish jarayoni maqbul parametrlari ishlab chiqilgan;

uglevodorod xomashyosiga distillat fraksiyalari issiqlik oqimlari bilan ishlov berish orqali birlamchi xaydashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik hisoblashlarning aniqligi, ularni nazariy tadqiqotlar bilan asoslanganligi, zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullarining qo'llanilganligi hamda olingan tajriba natijalarining ishlab chiqarish sinovlari natijalariga mos kelishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati distillat fraksiyalarining issiqlik oqimlaridan foydalanib qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmalarida neft xomashyosini isitish jarayonlarini maqbullashtirishning ilmiy-amaliy asoslari rivojlantirilganligi va issiqlik uzatish quvurlari uzunligi bo'ylab xom ashyo va distillat fraksiyalarining haroratlari taqsimotini hisobga olgan holda issiqlik almashinish apparatlarini optimal hisoblash va loyihalash uslubini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati distillat fraksiyalari issiqligidan foydalanib quvurli issiqlik almashinish apparatlarida xom ashyoni isitib xaydashga tayyorlashning 1-bosqichidagi jarayonlarni samarali tashkil etish va shu asosda energiya samarador ishchi yuzali apparatlar tutgan kam bosqichli birlamchi xaydashning takomillashgan texnologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uglevodorod xomashyosiga issiqlik ishlovi berib birlamchi xaydashga tayyorlash jarayonlarini maqbullashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

distillat fraksiyalari issiqligi bilan uglevodorod xomashyosini birlamchi xaydash texnologiyasi «Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning «2025-2027 yillarda amaliyotga joriy etilishi bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2025 yil 21 yanvardagi 01-05/112-sonli ma'lumotnomasi). Natijada birinchi bosqichidagi xom ashyoni isitish uchun issiqlik almashinish apparatlarining umumiy optimal isitish yuzasi ($F_{opt} = 856,7 \text{ m}^2$) hisoblanib, qurilmalarning issiqlik yuklamasini 50÷60 % ga oshirish imkonini beradi;

xom ashyoni qaynoq disstilyatlar oqimi bilan qizdirish texnologiyasi «Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning «2025-2027 yillarda amaliyotga joriy etilish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati»ga kiritilgan («Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2025 yil 21 yanvardagi 01-05/112-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qizdiruvchi apparatlarning ekspluatatsion va energetik sarf harajatlarni 1,3 marotabagacha kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 15 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarida 11 ta maqola, jumladan, 6 tasi Respublika va 5 tasi xalqaro jurnallarda nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2 ta DGU № 28440 va 27919-sonli guvohnomalari olindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusining Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarining ishonchligiga asoslanib, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi xaqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Uglevodorod xomashyosiga issiqlik ishlovi berib birlamchi xaydashga tayyorlash jarayonlari nazariyasi va amaliyoti asoslari**» deb nomlangan **birinchi bobida** adabiyotda keltirilgan konvektiv issiqlik almashinish asoslari, xomashyo, suyuq va bug‘ fazalaridagi distillatlar xossa ko‘rsatkichlarini hisoblash tenglamalari batafsil tahlil qilingan; turli konstruksiyadagi qobiq-trubali qurilmalarining ishlash samaradorligi kritik tahlil qilingan, quvurli qurilmalarda xomashyoni isitish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish asoslariga e‘tibor berildi. Qayd etildiki, neftni qayta ishlash uskunalarning issiqlik almashtirgichlari issiqlik uzatish samaradorligi past, energiya sarfi yuqori va katta vazni va o‘lchamlari bilan ajralib turadi. Ko‘rib chiqilgan materiallarni tahlil qilish asosida xom ashyoni distillat fraksiyalarining issiqlik oqimlari bilan isitishning konstruktiv va texnologik parametrlarini maqbullashtirish orqali neftni qayta ishlash uskunalarning quvurli issiqlik almashtirgichlarni samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy tamoyillarini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi asoslanadi va tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyasining «**Neft xomashyosiga issiqlik ishlovi berib xaydashga tayyorlash jarayonlarini tajriba-hisoblash yo‘li bilan tadqiq etish**» nomli **ikkinchi bobida** neft xomashyosini xaydash jarayonida kechadigan issiqlik va massa

almashinish jarayonlarini tadqiq etish uchun tajriba uskunalarning konstruksiyalari, ishlash printsiplari va o'tqazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Quvurli apparatlarda distillat fraksiyalari bug'larini kondensatsiyalanishi paytida neft xomashyosini isitish va uni birlamchi xaydash jarayonlarini tadqiq etish ishlari O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutining "Kimyoviy texnologiya jarayonlari va apparatlari" laboratoriyasida olib borilgan.

Neft va neftgazkondensati aralashmalarini xaydash jarayonining asosiy qonuniyatlari beshta disk tipidagi tarelkali kontakt moslamalari ($d = 76 \text{ mm}$) bilan butlangan uchta sektsiyali tajribaviy rektifikatsiya kollonasida (1-rasm) tadqiq etildi.



1 - bug 'qozon-qizdirgich; 2 - gaz gorelkasi; 3 - xom ashyoni isitgich; 4 - rektifikatsion kolonnasi; 5 - flanetsli birikma; 6 - klapanli tarelka; 7 - oqib tushish plastinasi; 8 - termometrlar; 9 - kollonna yuqori qismi; 10 - bug' bosimini o'lchash uchun manometrlar; 11- bug' fraksiyalarini kondensatsiyalash uchun vertical deflegmator; 12 - ajratuvchi moslama; 13- stripping-kolonna; 14 va 17 - fraksiyalar distillatlarini sovutish uchun gorizontaal suvli sovutkichlar; 15 va 16 - distillat fraksiyalari uchun o'lchov idishlari; 18 -elektr isitgich; 19 - kolonna kub qismi.


1-rasm. Uglevodorod xomashyosini xaydash etish uchun tajriba uskunasi sxemasi

Tajribalar davrida asosiy e'tibor rektifikatsiya kollonasining kub qismi va sektsiyalarida suyuqlik haroratining vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganishga qaratildi.

Neft bug'larini quvurli apparatlarda kondensatsiyalanishi paytida xomashyoni isitish jarayoni asosan bug' generatori 2, qobiq-quvurli apparat 9 ($D = 70/76 \text{ mm}$, $d = 10/13 \text{ mm}$, $l = 1000 \text{ mm}$, trubalar soni $n = 7$ ta va $F = 0,236 \text{ m}^2$), kondensatni

yig'uvchi o'lchov idishi 12 va sovytuvchi agent sarfini o'lchash uchun hisoblagich 11 dan iborat bo'lgan tajriba uskunasida (2-rasm) tadqiq etildi.

Tajribalarda xomashyo va sovytuvchi suv haroratlarini vaqt va apparatning issiqlik almashinish quvuri uzunligi bo'yicha taqsimlanishi o'rganildi. Eksperimental qurilmalarda haroratni o'lchash natijalariga ko'ra Hisoblash-tajribalar o'tkazish yo'li bilan mahalliy neft, neftegazkondensat aralashmalari hamda bug' va suyuq holatidagi



1- gaz gorelkasi; 2- bug' generatori; 3- manometer; 4- manometrik termometr; 5- tytashtiryv quvuri; 6- prodyvka ventili; 7- ventily; 8- issiqlik uzatish quvurlari; 9- modulli qobiq-quvurli apparat; 10- termometr; 11- suv sarfi hisoblagichi; 12- kondensat uchun o'lchov idishi; 13- tayanch.

2-rasm. Neft xomashyosi bug'larini quvurli apparatda kondensatsiyalanish jarayonida issiqlik almashinishni tadqiq etish uchun tajriba uskunasi sxemasi

distillat fraktsiyalarining asosiy xossalari ko'rsatkichlarining $20 \div 200$ °C va $40 \div 300$ kPa oraliqlardagi o'zgarish chegaralari aniqlandi.

Hisoblash va eksperimental ma'lumotlarga matematik ishlov berish orqali $t = 20 \div 200$ °C haroratlarda xomashyo va distillat fraktsiyalarining quyidagi xossa ko'rsatkichlarini hisoblash uchun empirik tenglamalar olindi:

- benzin fraktsiyasi zichligi - $\rho = - 0,6848 t + 772,72;$ (1)

- qovushqoqlikning kinematik koeffitsienti ν (mm^2/s):
neftni $\nu = 9,4016 e^{-0,018 t};$ (2)

70%N+30%GK aralashmasini $\nu = 3,7157 e^{-0,018 t};$ (3)

30%N+70%GK aralashmasini $\nu = - 0,0067 t + 1,1726;$ (4)

- benzin distillatlari fraktsiyalarining entalpiyasi:
bug' fazasida $i_{\text{II}} = 1,8914 t + 352,5;$ (5)

suyuq fazasida $i_{\text{Ж}} = 2,3572 t - 17,746;$ (6)

- neftning issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = - 9e^{-0,05 t} + 0,1617;$ (7)

- benzin fraktsiyasi distillatlari uchun $\lambda = - 8e^{-0,07 t} + 0,0015.$ (8)

Jarayon davomida xom ashyo, distillat fraktsiyalari va ularning bug'lari xususiyatlarining harorat o'zgarishini hisobga olgan holda quvurli issiqlik almashinish apparatlarda issiqlik uzatish koeffitsientini aniq hisoblash usuli ishlab chiqilgan. Ushbu uslub orqali qurilmalarda issiqlik uzatish koeffitsientining haqiqiy qiymatini aniqlashga yordam berib, energiya samarador va ixcham konstruktsiyali apparatlarni loyihalashda sezilarli energiya tejash imqonini beradi.

«**Neft xomashyosini distillyat fraksiyalari oqimlari bilan qobiq-trubali apparatlarda isitish jarayonini matematik modellashtirish**» deb nomlangan dissertatsiyasining **uchinchi** bobida tizimli tahlil printsiplariga muvofiq, qobiq-trubali apparatda xomashyoni qizdirish jarayonini uning tarqibiy «elementar» jarayonlariga (xodisalarga) блокlab dekompozitsiya qilingan. Quvurli apparatda o'rganilayotgan jarayon tabiatini tavsiflovchi xodisalarni pog'onali tahlili asosida uning besh bosqichli ierarxik tuzilmasi aniqlandi.

Jarayonning ierarxik tuzilishining I (yuqori) darajasida apparat undagi issiqlik almashinish jarayonlar tizimi sifatida ko'rib chiqilgan. Ierarxiyaning II bosqichida apparatning tarkibiy bo'linmalaridagi jarayonlar tahlil qilinadi - suyuqlik taqsimlash kamerasida, quvurli qismda, isitiladigan suyuqlik chiqish kamerasida va quvurlar orasidagi bo'shliqda. Ierarxiyaning III bosqichida apparatning quvurli qismi ko'p kvazi-apparatli sifatida taqdim etiladi. Ierarxiyaning IV darajasida har bir kvazi-qurilma isitish kamerasi, quvur devorlari va quvur bo'shlig'idan iborat kompleks shaklida taqdim etiladi. Ierarxiyaning V bosqichida quvurlararo makonning har bir quyi tizimidagi jarayonlar - bug'ning kondensatsiya haroratigacha sovutish zonasi, bug'ning kondensatsiyalanishisi va kondensatni sovutilishi, shuningdek, quvurlarning devorlari o'rganildi.

Ixcham va adekvat matematik modelini tuzish uchun neftni qayta ishlash uskunasining apparatlarida jarayonning konstruktiv-texnologik parametrlarining chegara qiymatlaridan foydalangan holda o'rganilayotgan jarayonning yuqorida aniqlangan hodisalarning og'irligi θ_τ xom ashyoni xaydashga termik tayyorlash uchun I blok 10E01÷10E08 apparatlarning birliklarida θ_τ mezoniga muvofiq qurilmalar suyuqlik va energiya oqimlarining τ_e bo'lish vaqtining o'rtacha qiymati bilan aniqlandi:

$$\theta_\tau = f(\tau_{\text{э.ср}} / \Sigma \tau) 100 \% \leq \varepsilon_\tau, \quad (9)$$

Quvurlar ichidagi **sovutish suvi** (10), quvurlar devorlarida issiqlik almashinuvi (11), quvurlardagi suyuqlikni isitish (12), zichlikdagi harorat o'zgarishi (13) va xom ashyoning issiqlik sig'imi (14) jarayonlarining matematik tavsiflarini o'z ichiga olgan holda, qizdirgichlardagi hodisalarning og'irligini baholash natijalariga ko'ra quvurli apparatlarda xom ashyoni isitish dinamikasining to'liq matematik modeli olindi:

$$\left\{ \begin{array}{l} t_{\text{KHj}} = t_{\text{KHj-1}} + (t_{\text{KH BX}} - t_{\text{KHj-1}}) (G_\Pi / V_\kappa \rho_\Pi) \Delta \tau, \quad (10) \\ dt_{\text{CT2}} / d\tau = [4 / (d_{\text{HP}}^2 - d_{\text{BH}}^2) \rho_{\text{CT}} c_{\text{CT}}] [\alpha_1 d_{\text{HP}} (t_{\text{KH}} - t_{\text{CT1}}) - \alpha_2 d_{\text{BH}} (t_{\text{CT2}} - t_{\text{Ж1}})]; \quad (11) \\ dt_{\text{Ж2}} / d\tau = (4 / \pi d_{\text{BH}}^2 \ln \rho_{\text{Ж2}} c_{\text{Ж2}}) [G_{\text{Ж}} (c_{\text{Ж1}} t_{\text{Ж1}} - c_{\text{Ж2}} t_{\text{Ж2}}) + \alpha_2 \pi d_{\text{BH}} \ln (t_{\text{CT2}} - t_{\text{Ж1}})]; \quad (12) \\ \rho_4^t = 1000 \rho_4^{20} - \frac{0,58}{\rho_4^{20}} (t - 20) - \frac{[t - 1200 (\rho_4^{20} - 0.68)]}{1000} \cdot (t - 20); \quad (13) \\ c_p = 1,5072 + \frac{T - 223}{100} \times (1,7182 - 1,5072 \rho_4^{20}); \quad (14) \\ t_{\text{Ж2}} \leq t_{\text{огр.}} \end{array} \right.$$

Kelgysida apparatlarning optimal issiqlik almashinish yuzasini hisoblash uchun neft xomashyosini distillangan fraksiyalarning issiq oqimlari bilan qobiq-quvurli apparatda isitish jarayoni statikasining matematik modeli tuzildi, bu jarayon statikaning matematik modeli bo'lib, ma'lum konstruktiv va texnologik parametrlari

G , d_{BH} , l va n bo'lgan quvurlar (15) uzunligi l bo'yicha xom ashyo t haroratining o'zgarishini tavsiflaydi:

$$\begin{cases} G \frac{d(ct)}{dl} = \alpha_2 \pi d_{BH} n (t_{ct} - t), & (15) \\ \rho_4^t = 1000 \rho_4^{20} - \frac{0,58}{\rho_4^{20}} (t - 20) - \frac{[t - 1200(\rho_4^{20} - 0,68)]}{1000} \cdot (t - 20); & (13) \end{cases}$$


$$c_p = 1,5072 + \frac{T - 223}{100} \times (1,7182 - 1,5072 \rho_4^{20}); \quad (14)$$

$$t = f(P); \quad t \leq t_{chek}, \quad (16)$$

Yuqorida taklif etilayotgan texnologik modellarda G - xom ashyo sarfi, kg/s; c - t haroratda xomashyoning issiqlik sig'imi, J/(kg K); α_2 - quvur devoridan qizdirilgan suyuqlikka issiqlik berish koeffitsienti, Vt/(m²·K); d_{BH} - quvurlarning ichki diametri, n - apparatdagi quvurlar soni, dona; t_{st} - quvur devorining ichki yuzasi harorati, °C; $T = t + 273,15$, K; ρ_4^t - t haroratda xomashyoning zichligi, kg/m³; ρ_4^{20} - 20 °C da xom ashyoning zichligi, kg/m³; t_{chek} - apparatda isitiladigan xomashyoning harorati bo'yicha texnologik cheklovlar, °C.

Xomashyo isitishning statik modeliga asoslanib, berilgan texnologik parametrlar bo'yicha apparat quvurlari uzunligi bo'yicha suyuqlik haroratining uzluksiz taqsimlanish xarakteri asosida o'rganilishi ushbu jarayonni optimal hisoblash va loyihalash metodikasi taklif etiladi.

Jarayonning matematik modelidan foydalangan holda qobiq trubali qurilmalarda neftgazokondensat aralashmasini isitish statikasini o'rganish uchun MATLAB/Simulink platformasida uning kompyuter modeli tuzildi (3-rasm).




3-rasm. MATLAB Simulink platformasida neftgazokondensat aralashmasini isitish jarayonining kompyuter modeli bloking ko'rinishi


Kompyuter modelidan foydalanib, neftni va 30 % neft va 70 % gazokondensatidan iborat ishchi aralashmani issiqlik ishlovi berib xaydash uchun I bloking 10E-01÷10E-08 raqamli sakkizta ketma-ket ulangan qurilmalarida qizdirish jarayonining statikasi o'rganildi. Xom ashyoni isitish Buxoro neftni qayta ishlash zavodining birlamchi neft xaydash uskunasi 10C-02 atmosferali rektifikatsion kolonnasidan chiqadigan issiq texnologik oqimlarning issiqligini olib tashlash orqali amalga oshiriladi.

Quyida 10E-02 qobiqtrubali issiqlik almashinish apparatlarda umumiy nafta bug'larini kondensatsiyalash orqali aralashmani isitish statikasini tadqiqot natijalari keltirilgan. Uning pasporti bo'yicha apparatning isitish yuzasi $F_{BH1} = 196,7 \text{ m}^2$ ($d = 20/25 \text{ mm}$ dagi, $l = 4,8 \text{ m}$ uzunlikdagi va $n = 580$ dona miqdoridagi quvurlardan iborat bo'lgan). Aralashmaning apparatda qizdirilishi texnologik jarayon parametrlarining quyidagi tartibga solingan qiymatlarda o'rganildi: aralashma uchun apparatning unumdorligi $G_o = 105508 \text{ kg/soat}$, aralashmaning zichligi $\rho_{20} = 768 \text{ kg/m}^3$, apparatga kirish joyidagi aralashmaning harorati $t_{kir} = 25,6 \text{ }^\circ\text{C}$, undan chiqishda $- t_{chik} = 49,1 \text{ }^\circ\text{C}$ va apparat qobiqidagi bug' kondensasiyasi harorati $t_{kn} = 148,72 \text{ }^\circ\text{C}$.

4-rasmda jarayon davomida apparatning quvurlari l uzunligi bo'yicha issiqlik uzatish koeffitsienti K o'zgarishining egri chizig'i ko'rsatilgan. Qurilmadagi K koeffitsienti qiymatlarini hisoblash jarayon haroratiga qarab xom ashyo va distillat fraksiyalari xususiyatlarining doimiy o'zgarishini hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Matematik model bo'yicha izlanish natijalariga ko'ra, issiqlik almashinish qurilmasining quvurlar uzunligi l bo'yicha, uning berilgan texnologik unumdorlikda G_o qizdirilgan neftegazokondensat aralashmasining harorat taqsimoti egri chizig'i t qurilgan (5-rasm).



4-rasm. 10E-02 apparatida $G = 105508 \text{ kg/soat}$ aralashmani qizdirish jarayonida issiqlik uzatish koeffitsientini quvurlar uzunligi l bo'ylab taqsimlanishi



5-rasm. 10E-02 issiqlik almashinish apparatida qizdirilayotgan $G = 105508 \text{ kg/soat}$ aralashma haroratini t quvurlar uzunligi l bo'ylab taqsimlanish egri chizig'i

Egri chizig'ini $l = f(t)$ tahlil qilinishi shuni ko'rsatadiki, berilgan sarf G_o bo'yicha qurilmadagi aralashma harorati t uzunligi $l \leq 2,5 \text{ m}$ bo'lgan qismida, seqinlik bilan $50 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha ortib borayotgan tezlik ($14,3 \text{ }^\circ\text{C/m}$) bilan ko'tariladi. Keyinchalik, aralashma va issiqlik tashuvchi o'rtasidagi doimiy harorat farqiga erishish bilan quvurlarning uzunligi bo'yicha qolgan qismida aralashmaning isitish tezligi ($2,5$ dan $4,8 \text{ m}$ gacha) doimiy xarakterga ega bo'ladi.

Shuningdek, 5- rasmdan ko'rinib turibdi, chiqish $t_{chik} = 50 \text{ }^\circ\text{C}$ da aralashmaning kerakli haroratiga erishish uchun faol uzunlikdagi $l_{faol} = 2,5 \text{ m}$ bo'lgan quvur to'plamining bir qismi etarli, bu esa apparatdagi issiqlik uzatish quvurlarining umumiy uzunligining 52% ni tashkil qiladi. Bunday holda, apparatning kerakli isitish yuzasi $F_{BH2} = 81,96 \text{ m}^2$ ni tashkil qiladi. Qurilmaning issiqlik uzatish yuzasining aniqlangan zaxirasi $\Delta F_{BH} = F_{BH1} - F_{BH2} = 14,74 \text{ m}^2$ uning unumdorligini yanada oshirish uchun zaxira mavjudligini ko'rsatadi. 10C02 neftni qayta ishlash qurilmasining aralashmasini isitish I blokining 10E-01÷10E-08 issiqlik almashtirgichlarining F_{opt}

Issiqlik uzatish yuzalarining optimal qiymatlarini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblarning asosiy natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval materiallaridan kelib chiqadiki, korxonada berilgan $G_o = 105508$ kg/s ishchi aralashmasining miqdorini 20 dan 150 °C gacha qizdirish uchun $F_{so'm} = 1781,7$ m² issiqlik almashinuvining umumiy yuzasiga ega qurilmalar qo'llani-ladi. Shu bilan birga, aralashmani isitishning ushbu bosqichidagi barcha issiqlik almashtirgichlarning talab qilinadigan (optimal) isitish yuzasi $F_{opt} = 856,7$ m² ni tashkil qiladi. Shuning uchun, ushbu blok qurilmalarining issiqlik almashinuvi yuzasi $\Delta F = 925$ m² (yoki 52 %) uchun zaxira mavjud.

1-jadval

Buxoro NQZ 10C02 neftni qayta ishlash uskunasining issiqlik almashinish qurilmalari quvurlarining optimal uzunligi (yuzasi F_{opt}) ni hisoblash natijalari ($G = 105508$ kg/soat, $d = 20/25$ mm)

Litera	l, m	$F_{o'r}, m^2$	t_n	t_k	t_n	t_k	l_{opt}, m	F_{opt}, m^2	$\Delta F, m^2$	$\Delta F, \%$
10E-01	4,8	97,6	20	25,6	125,6	103,2	2,25	45,8	51,8	53,07
10E-02	4,8	196,7	25,6	49	148,7	146	2,5	81,96	114,74	58,33
10E-03	6,0	468,8	49,1	96,1	165	152	2,5	195,4	273,4	58,32
10E-04	6,0	273	96,1	111,7	137	114	4,8	218,4	54,6	20,0
10E-05	6,0	113,6	111,7	119,7	138,8	125,6	2,6	49,23	64,37	56,66
10E-06	6,0	192	119,7	126,3	159,4	136,9	2,28	73,13	118,87	61,91
10E-07	6,0	222	126,3	142,3	171	167	3,0	111,06	111	50,0
10E-08	6,0	218	142,3	150	257,7	185,3	2,25	81,71	136,29	62,5
		1781,7						Σ 856,7	Σ 925	51,92

Aniqlangan ΔF qiymati ekspluatatsiyadagi qurilmalarda - issiqlik almashinishni jadallashtirilish ko'rsatkichi bo'lib ularning issiqlik samaradorligini oshirish, unumdorligini ko'paytirish (masalan, 1,5÷2 marta) bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi yoki I blok xomashyoni issitishga tayyorlashning texnologik sxemasini soddalashtirish uchun.

Dissertatsiyaning «**Neftni qayta ishlash zavodi birlamchi xaydash uskunasining qobiq-quvurli apparatlarida neftgazokondensat aralashmasini isitish jarayonlarini optimallashtirish**» deb nomlangan **to'rtinchi bobida** issiqlik almashinish qurilmalarining texnologik rejimlarini optimallashtirish orqali uskunaning energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Xom ashyo distillatlarining fraksiyalari issiqligi bilan isitish rejimining optimal chegaralarini aniqlash uchun optimallik mezoni sifatida apparatlarning ishlash iqtisodiy samaradorligini bilvosita baholaydigan isitiladigan xom ashyo C_t ning texnologik qiymati tanlangan. Issiqlik almashinish apparatlarning konstruksiyasidagi va unumdorlikdagi farqlarni hisobga olgan holda, ularning ish samaradorligini tahlil qilish uchun optimallik mezoni sifatida isitiladigan xom ashyoning solishtirma texnologik tan narxi $C_{sol} = C_{tex}/G_o$ qabul qilindi:

$$C_{sol} = 1/G_o [C_e(N_n+N_d) + A_a F_a + A_n (N_n + N_d)], \quad (17)$$

bu erda G_0 - xom ashyo sarfi; C_e - elektr energiyaning tannarxi, so'm/kVt; N_n va N_d - neft va distillat fraktsiyalarini uzatuvchi nasoslarning iste'mol quvvati, kVt; F_a va F_{kn} - aralashmaning xossaligidagi ko'rsatkichlarni harorat o'zgarishi bo'yicha hisobga olgan holda aniqlashtirilgan usul orqali issiqlik koeffitsientlarini hisoblangan issiqlik almashinish apparatlarning va kondensatorlarning issiqlik o'tkazish yuzalari, m^2 ; A_a , A_{kn} va A_n - qurilmalar va nasoslarning intensiv ishlashining T davomiyligiga qarab amortizatsiya chegirmalari.

Qizdirilgan aralashmaning texnologik tannarxiga xarajat elementining ta'sirini qiyosiy baholashda (17) ifodaga kiritilgan parametrlarni hisoblash uchun tenglamalarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Neftgazkondensat aralashmasini uglevodorod issiqlik tashuvchilari bilan qobiqtrubali issiqlik almashinish apparatida isitish uchun optimallik mezzonini maqsad funksiyasi qo'yidagi (18-25) tenglamalar tizimi ko'rinishida shakllantirildi:

$$\left\{ \begin{array}{l} C_{sol} = 1/G_0 [C_9(N_H + N_D) + A_a F_a + A_H (N_H + N_D)]; \quad (18) \\ \rho_4^t = 1000 \rho_4^{20} - \frac{0,58}{\rho_4^{20}} (t - 20) - \frac{[t - 1200(\rho_4^{20} - 0,68)]}{1000} \cdot (t - 20); \quad (19) \\ c_p = 1,5072 + \frac{T - 223}{100} \times (1,7182 - 1,5072 \rho_4^{20}); \quad (20) \\ N_H = (G_0 \Delta P) / (1000 \rho \eta_H); \quad (21) \\ \Delta P = 0,5 v^2 \rho (\lambda n l / d_{\text{KB}} + \sum \varphi_i); \quad (22) \\ F_a = G_0 (c_{\text{BIX}} t_{\text{BIX}} - c_{\text{BX}} t_{\text{BX}}) / (K_{\text{KH}} \Delta t_{\text{cp}}); \quad (23) \\ A_a = (E_H U_T) / 24 T_H F_a; \quad (24) \\ A_H = (E_H U_H) / 24 T_H N_H; \quad (25) \\ t_{\text{BIX}} \leq t_{\text{orp}}. \end{array} \right.$$

Ushbu tenglamalar tizimini yechimi ishchi aralashmani fraktsiyalarning issiq oqimlari bilan issiqlik almashinish apparatlarda isitishning optimal chegaralarini aniqlashga karatilgan bo'lib, bu esa xom ashyoni C_{sol} isitishning solishtirma texnologik tannarxining minimal ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.


Bu jihatdan, quyidagi 10E-03 qobiqtrubali issiqlik almashinish-kondensatorida ishchi aralashmani isitilish texnologik tannarxi, ya'ni xarajatlar tahlili keltirilgan. Qurilmaning isitish yuzasi (korxonadagi texnik pasporti bo'yicha) $F = 468,8 m^2$ ($d = 20/25 mm$, $l = 6000 mm$ va $n = 1106$ dona). Ishchi aralashmani I blokning sakkizta ketma-ket ulangan issiqlik almashinish apparatlari nasos orqali haydash uchun o'rnatilgan quvvati $N_n = 250 kVt$ va balans narxi $U_n = 224,432 mln$ so'm bo'lgandagi ko'rsatkichlarda amalga oshiriladi. Issiqlik almashinish apparatlarning balans qiymati $U_a = 462,842 mln$ so'm, (24) ifodaga muvofiq issiqlik almashinish apparatlari uchun amortizatsiya to'lovlarning qiymati $A_a = 16,939 so'm/m^2$, nasos uchun esa (25) $A_n = 15,402 so'm/kVt$ tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari 10E-03 issiqlik almashinish apparatining qo'yidagi texnologik parametrlarda o'tkazilgan: aralashma sarfi $G_0 = 105508 kg/soat$ va 10C-02 kollonnasining yuqori qismidan chiqayotgan og'ir nafta bug'lari sarfi $G_d = 61898 kg/soat$. Aralashmani issiqlik almashinish apparatiga qirish xarorati $t_k = 49 ^\circ C$, u

eyrda $t_{ch} = 96 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha og'ir nafta bug'lari kondensatsiya temperaturasi $T_I = 165 \text{ }^\circ\text{C}$ orqali isitilib boradi.

